



"O'ZBEKISTON SANOAT-QURILISH BANKI" AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI  
АКЦИОНЕРНЫЙ КОММЕРЧЕСКИЙ БАНК "УЗБЕКСКИЙ ПРОМЫШЛЕННО-СТРОИТЕЛЬНЫЙ БАНК"  
"UZBEK INDUSTRIAL AND CONSTRUCTION BANK" JOINT-STOCK COMMERCIAL BANK  
O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Shahrizabz ko'chasi, 3-uy, 100000  
E-mail: info@sqb.uz, web-site: www.sqb.uz

## SIYOSAT

"O'zsanoatqurilishbank" ATB  
Boshqaruvining  
2026-yil 16 fevral dagi  
304 -sonli qaroriga  
ILOVA

"O'zsanoatqurilishbank" ATB  
Kuzatuv kengashining  
2026-yil 10 sentabr dagi  
2026/19 -sonli qarori bilan  
**"TASDIQLANGAN"**

Yuridik departament  
Korporativ va ichki hujjatlar  
ekspertizasi xizmatida  
2026-yil 21 sentabr da  
713 -son bilan

**"RO'YXATGA OLINGAN"**

### **"O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati**

Mazkur Siyosat O'zbekiston Respublikasining "Uy-joy" va "Yer" kodekslari, O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi qonunlari, "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi nizom (ro'yxat raqami: 541, 2020-yil 07-sentabr) shuningdek atrof-muhitni muhofaza qilish va ijtimoiy siyosat sohasidagi xalqaro moliya institutlarining tavsiyalariga hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ichki hujjatlarini tayyorlash va qabul qilish tartibi (ichki ro'yxat raqami 638, 2025-yil 24-fevral) va boshqa ichki hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan bo'lib, "O'zsanoatqurilishbank" ATBning (keyingi o'rinlarda - Bank) kredit va investitsiya faoliyatini amalga oshirish uchun ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosatini hamda ushbu risklarni boshqarish orqali uzoq muddatli istiqbolda Bank mijozlarining barqaror rivojlanishini ta'minlashga yo'naltirilgan va moliyalashtirilayotgan loyihalar bo'yicha majburiy ekologik va ijtimoiy talablarini belgilaydi.

### **1-bob. Umumiy qoidalar**

#### **1. Siyosat quyidagi maqsadlarga erishishga qaratilgan:**

potensial salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni kamaytirish, Bankning kredit hamda investitsiya faoliyati davomida yuzaga keladigan ijobiy ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni oshirish;

mijozlarni atrof-muhitni muhofaza qilish, mehnat munosabatlari, mehnatni muhofaza qilish hamda texnika xavfsizligi va ijtimoiy jihatlar sohasidagi milliy qonunchilik talablariga muvofiq ravishda biznes faoliyatini yuritishni, shuningdek ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish sohasidagi ilg'or xalqaro tajribalarni qo'llashni rag'batlantirish.

2. Ushbu Siyosat qoidalari Bank va qarz oluvchilar o'rtasida tuziladigan shartnomalarda ko'rsatilgan taqdirda qo'llaniladi.

## **2-bob. Bank majburiyatlari**

3. Bank o'z faoliyatida inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi global qadriyatlarni targ'ib etishga, mehnat munosabatlariga, atrof-muhit muhofazasiga mas'uliyatli yondashishga, ilg'or tajribalar, Xalqaro moliya korporatsiyasi (keyingi o'rinlarda – XMK)ning faoliyat standartlari, Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (keyingi o'rinlarda – YeTTB) loyihalarni amalga oshirish bo'yicha talablari, Osiyo taraqqiyot bankining (keyingi o'rinlarda – OTB) Ekologik va ijtimoiy tamoyillar to'g'risidagi talablari, Yashil iqlim jamg'armasining (keyingi o'rinlarda - YIJ) hamda boshqa Xalqaro Moliya Institutlarining (keyingi o'rinlarda – XMI) qo'llanma hujjatlari va Global barqaror rivojlanish maqsadlariga (keyingi o'rinlarda – BRM) muvofiq ixtiyoriy ravishda ekologik va ijtimoiy majburiyatlar oladi.

4. O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-huquqiy va qonunchilik hujjatlarida banklarning ekologik majburiyatlarini belgilovchi quyidagi qoidalar mavjud:

Bank atrof-muhitni muhofaza qilish talablari va ekologik samaradorlik standartlariga javob bermaydigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda qatnashmaydi;

Bank tomonidan davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi bo'lmagan loyihalarni moliyalashtirish va kreditlashga yo'l qo'ymaydi;

tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish, atrof-muhitni muhofaza qilish va ekologik vaziyatni yaxshilashga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini ustuvor moliyalashtiradi.

5. Bank kredit ajratish va investitsiya faoliyatini amalga oshirishda iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari va iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlar, shuningdek, ularning moliyaviy, investitsiya va savdo faoliyati O'zbekiston Respublikasining BMTning "Barqaror rivojlanish maqsadlari" (BRM) Global tashabbusi doirasida qabul qilgan majburiyatlariga muvofiq ravishda barqaror rivojlanishga muhim hissa qo'shadi deb hisoblaydi. Bank o'zining rivojlanish strategiyasi va ushbu Siyosatga muvofiq "Barqaror rivojlanish maqsadlari"ning sog'liqni saqlash va farovonlik (BRM 3), gender tengligi (BRM5), toza suv va sanitariya (BRM 6), arzon va toza energiya (BRM 7), munosib mehnat va iqtisodiy o'sish (BRM 8), sanoat, innovatsiyalar va infratuzilma (BRM 9), tengsizlikni qisqartirish (BRM 10), barqaror shaharlar va aholi yashash joylari (BRM 11), mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish (BRM 12), iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish (BRM 13), quruqlikdagi ekotizimlarni muhofaza qilish (BRM 15) va barqaror rivojlanish yo'lida hamkorliklarini (BRM 17) amalga oshirishga ko'maklashadi.

6. Bank ekologik va ijtimoiy risklarni va salbiy ta'sirlarni aniqlash hamda ularning oldini olish, minimallashtirish yoki kompensatsiya qilish choralarini o'z vaqtida rejalashtirish va amalga oshirish uchun qarz oluvchilar faoliyatini va moliyalashtiriladigan loyihalarni ekologik va ijtimoiy baholashni amalga oshirish majburiyatini oladi.

7. Bank o'z resurslarini atrof muhitga jiddiy zarar yetkazishi va jiddiy ijtimoiy oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan loyihalardagi va sohalardagi konsentratsiyasini kamaytirish uchun oqilona va iqtisodiy maqsadga muvofiq harakatlar qiladi va istisnolar ro'yxatiga kiritilgan ayrim faoliyat turlarini moliyalashtirmaydi (istisnolar ro'yxati "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibida ko'rsatilgan).

8. Ekologik va ijtimoiy ta'sir hamda risklarning murakkabligi hamda xilma-xilligini inobatga olgan holda, tub va mahalliy aholiga, biologik xilma-xillikka va ekotizim xizmatlariga, madaniy meros obyektlariga jiddiy va qaytarib bo'lmaydigan salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan, shuningdek amalga oshirish jarayonida aholini ko'chirishni talab etadigan yoki aholi hayoti, salomatligi va xavfsizligiga tahdid soluvchi yuqori riskli loyihalarni moliyalashtirishda Bank xalqaro moliya institutlari (masalan, Jahon banki guruhi, XMK, YeTTB, OTB, YIИH va boshqalarning ekologik va ijtimoiy standartlarini (keyingi o'rinlarda – EIS) loyihalarini baholash, risklarini aniqlash, kamaytirish va monitoring qilish jarayonlarida qo'llaydi.

9. Bank XMIlari bilan ko'mirni qazib olish, qayta ishlash, tashish va saqlash, shu jumladan ko'mir yoqish orqali issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarish bo'yicha faoliyat va loyihalarni moliyalashtirish bo'yicha qabul qilingan va kelishilgan majburiyatlarni ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish jarayonlariga asosan bajaradi.

10. Bank mehnat munosabatlari va mehnat sharoitlari sohasida XMIlarning EISlari talablariga muvofiq mas'uliyatli mehnat amaliyotini qo'llash majburiyatini oladi va antropogen va tabiiy favqulodda holatlarda bank mijozlari, aholi va o'z xodimlarining sog'lig'ini saqlash va xavfsizligini ta'minlash yondashuvlariga rioya qiladi.

11. Bank ozchilikni tashkil etadigan millat o'zligini madaniy ifoda etishning an'anaviy shakllarini yaratish, tarqatish va targ'ib qilish hamda ulardan o'z taraqqiyoti yo'lida foydalanish huquqini tan oladi va zarurat tug'ilganda ularni qo'llab-quvvatlaydi.

Mijoz tomonidan amalga oshiriladigan faoliyat mahalliy va tub xalqlarning huquqlari, manfaatlari hamda an'anaviy turmush tarziga salbiy ta'sir ko'rsatmasligi talab etiladi. Agar loyiha mahalliy yoki tub xalqlarga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, loyiha amalga oshirilishidan oldin mijoz tomonidan ushbu mahalliy va tub xalqlardan mustaqil ravishda, oldindan va to'liq ma'lumot asosida berilgan rozilik (FPIC — Free, Prior and Informed Consent) olinishi hamda tegishli tasdiqlovchi hujjatlar vakolatli davlat organlariga va Bankka taqdim etilishi shart. Xalqaro donorlar ishtirokida moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha Bank, mazkur talablar bilan bir qatorda, tegishli donor tashkilotlar tomonidan tub xalqlar huquqlarini himoya qilish sohasida belgilangan qo'shimcha talablar va standartlarga ham rioya etilishini ta'minlaydi.

Bank YIИ tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlarni amalga oshirishda YIИning mahalliy va tub aholi siyosatida belgilangan talablarga rioya etish majburiyatini oladi.

12. Bank madaniy va tarixiy meros obyektlarining hozirgi va kelajak avlodlar uchun muhim rolini e'tirof etadi va ularni himoya qilishni o'zining moliyalashtirish faoliyatida ta'minlaydi. Bank madaniy va tarixiy meroslarni, qonun bilan himoya qilinishi yoki qilinmasligidan qat'iy nazar, ularni himoya qilishdan manfaatdor.

13. Bank o'zining moliyaviy faoliyatida gender tengligini ta'minlash, ayollar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni qo'llab-quvvatlash, shuningdek ayollarning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlarini kengaytirish majburiyatini oladi. Bank o'z faoliyati va Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda inklyuziv, adolatli va gender jihatdan mas'uliyatli rivojlanish natijalariga erishishni ta'minlashga intiladi. Bank o'z faoliyatida hamda Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalarda jinsiy ekspluatatsiya, jinsiy zo'ravonlik, jinsiy tazyiq va gender asosidagi zo'ravonlikning har qanday shakliga nisbatan mutlaq murosasizlik (zero tolerance) tamoyiliga amal qiladi. Xalqaro donorlar ishtirokida moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha Bank tegishli donor tashkilotlarning gender tengligi, ayollarning imkoniyatlarini kengaytirish hamda jinsiy ekspluatatsiya, zo'ravonlik va tazyiqning oldini olishga oid belgilangan qo'shimcha talablar va standartlarga ham rioya etilishini ta'minlaydi.

14. Bank o'z faoliyatida ekologik va ijtimoiy boshqaruv samaradorligini doimiy ravishda oshirish majburiyatini oladi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining samarali ishlashini ta'minlash uchun vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi, yangilanishi va o'zgartirilishi, shu jumladan uning faoliyatini doimiy ravishda ichki baholash natijasida aniqlangan va barqaror rivojlanish sohasida erishilgan natijalar bilan taqqoslanishi kerak.

### **3-bob. Qarz oluvchining majburiyatlari**

15. Bank qarz oluvchining faoliyatiga qo'yiladigan ekologik va ijtimoiy talablarni yuqorida ko'rsatilgan qonunchilik talablari, XMIlarining EISlari hamda Bankning barqaror rivojlanish borasidagi majburiyatlarini hisobga olgan holda belgilaydi.

16. Bank qarz oluvchilardan o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida ekologik va ijtimoiy ta'sirlarni kamaytirishni hamda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish jarayonlariga muvofiq ekologik va ijtimoiy standartlar to'plamini qo'llashni talab qiladi.

17. Bank tomonidan qarz oluvchilarga quyidagi ekologik va ijtimoiy talablar qo'yiladi:

Bankning istisnolar ro'yxatiga kiritilgan faoliyat bilan shug'ullanmaslik;

atrof muhitni muhofaza qilish, sog'liqni saqlash, xavfsizlik, mehnatni muhofaza qilish, mehnat munosabatlari, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, zo'ravonlik va jinsiy tazyiq hamda bolalar mehnat faoliyatiga yo'l qo'ymaslik, mahalliy aholining turmush tarzini buzmaslik va boshqa ijtimoiy jihatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonunlariga, davlat standartlari va me'yorlariga rioya qilish;

faoliyat jarayonida jins, yosh, nogironlik, millat, ijtimoiy kelib chiqish yoki boshqa belgilar asosida kamsitish holatlariga yo'l qo'ymaslik, ayollar, nogironligi bo'lgan shaxslar va boshqa zaif guruhlar uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash, hamda zarur hollarda inklyuziv yondashuvlarni (mos infratuzilma, xizmatlar va ish sharoitlari) joriy etish;

Bankning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida belgilangan hollarda Xalqaro moliya institutlarining ekologik va ijtimoiy standartlari talablariga, XMKning faoliyat standartlari va Jahon bankining atrof-muhit, sog'liqni saqlash va mehnatga oid qo'llanmalariga muvofiq biznes faoliyatini olib borish va kompleks loyihalarni amalga oshirish;

ekologik risklarni minimallashtirish, atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish, yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish bo'yicha chora-tadbirlarni

amalga oshirish, shu jumladan zamonaviy texnologiyalar, uskunalar va materiallarni joriy etish orqali inson va atrof muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish;

ijtimoiy risklarning oldini olish, kamaytirish va ijtimoiy javobgarlikni oshirishga qaratilgan ishlarni amalga oshirish;

faoliyatni amalga oshirish va loyihalarni Bank tavsiyasiga binoan tashkil qilishda ilg'or ekologik va ijtimoiy tajribalarni joriy etish va qo'llash.

#### **4-bob. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish**

**18.** Ushbu Siyosat tamoyillarini amalga oshirish uchun Bank risklarini baholash va boshqarishning korporativ amaliyotiga kiruvchi ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining ishlashini ta'minlash majburiyatini oladi.

**19.** Bank tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar ushbu Siyosat qoidalarini va O'zbekiston Respublikasining "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonuniga binoan nafaqat moliyaviy imkoniyatlar asosida, balki ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olgan holda ularni moliyalashtirish imkoniyatlari to'g'risida qaror qabul qilish uchun ekologik va ijtimoiy baholashdan o'tishlari shart.

**20.** "O'z sanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

mijozlar faoliyatini Bankning istisnalar ro'yxatiga muvofiq oldindan tahlil (skrining) qilish;

obyektlarni ekologik va ijtimoiy risk darajasi XMIlari standartlari bo'yicha (A, B+, B va C) "Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida"gi Nizomiga binoan qarz oluvchining loyihasiga/faoliyatiga tayinlangan I, II, III va IV toifalarni hisobga olgan holda toifalash;

qarz oluvchilarning faoliyatini amaldagi ekologik va ijtimoiy talablarga muvofiqligini ekologik va ijtimoiy baholash hamda zarur bo'lganda, mijoz bilan kelishilgandan keyin kredit shartnomasining bir qismi bo'lgan salbiy ekologik va ijtimoiy ta'sir va risklarni kamaytirishga yo'naltirilgan tuzatuvchi choralar rejasini ishlab chiqish.

**21.** Bank portfelidagi ekologik va ijtimoiy ko'rsatkichlar monitoringi hamda mijozlarning ekologik va ijtimoiy majburiyatlarga muvofiqligini tekshirish maqsadida, Bank moliyalashtirilayotgan loyihalarda ishtirok etish davrida ekologik va ijtimoiy talablarning bajarilishi ustidan doimiy monitoringni amalga oshiradi. Bankning amalga oshirilgan ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilish bosqichida loyihalarning potentsial ekologik va ijtimoiy ta'sirini hisobga olish;

qarz oluvchilarga ularning loyiha bo'yicha faoliyatini ekologik va ijtimoiy ta'sir darajasi va xususiyatini hisobga olgan holda talablarni belgilash va ushbu talablarning bajarilishini nazorat qilish;

qarz oluvchilarning loyihalariga ekologik va ijtimoiy muhitga ta'sirini baholash natijalari bo'yicha tadbirlar rejasini va tavsiyalarini, shu jumladan jamoatchilik fikrini hisobga olish talablarini bajarishga hissa qo'shish;

ahamiyatli ekologik va ijtimoiy risklarga hamda amalga oshirilishi natijasida atrof-muhit sifati va odamlarning yashash sharoitini sezilarli darajada yomonlashishiga olib keladigan loyihalarni moliyalashtirishdan chiqarib tashlash;

tabiiy resurslarni boshqarish masalalarida, atrof-muhitni muhofaza qilish sifati va ekologik toza ishlab chiqarishni joriy etishga ustuvorlik berish;

ushbu Siyosatda ko'zda tutilgan talablarni bajarishda ochiqlik va oshkoralikni ta'minlash.

**22.** Davlat ekologik siyosati O'zbekiston Respublikasi ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi tomonidan amalga oshiriladi. Davlat ekologik ekspertizasini o'tkazuvchi O'zbekiston Respublikasi ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzurida tashkil etilgan "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" davlat muassasasi davlat ekologik ekspertizasining yagona tizimini tashkil etadi.

**23.** Mazkur siyosat Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlangandan so'ng, Boshqaruv tomonidan Investitsiya va kredit qo'mitalari orqali amalga oshiriladi. Siyosatni amaliy tatbiq qilish Bankning Sustainable Finance departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

**24.** Bank ushbu Siyosatni samarali amalga oshirish va tatbiq etish uchun ekologik va ijtimoiy sohada malakali kadrlarni jalb qiladi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining ishlashiga javobgar shaxslar tayinlanadi.

**25.** Ushbu Siyosat Bankning barcha tarkibiy bo'linmalariga, shu jumladan Bank tarmoqlariga ham qo'llaniladi va ushbu Siyosat qoidalari Bank tomonidan ajratiladigan barcha kredit turlariga nisbatan qo'llaniladi.

### **5-bob. Tashkiliy tuzilma va xodimlar tarkibi**

**26.** Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini ishlab chiqish, amalga oshirish, lozim darajada ishlashi uchun Bankning Sustainable Finance departamenti mas'ul hisoblanadi.

**27.** Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi va uning ishlashini ta'minlash bilan bog'liq barcha masalalar uchun umumiy javobgarlikka ega bo'lgan mas'ul xodimlar ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining koordinatori hamda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining menejeri hisoblanadi. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining koordinatori roli Sustainable Finance departamenti direktoriga, ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining menejeri esa Ekologik, ijtimoiy va iqlim risklar xizmati katta menejeriga yuklatiladi.

**28.** Bank doimiy ravishda ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining tartib va talablarini bajarish bilan shug'ullanuvchi xodimlarining bilimlarini, vakolatlari va ko'nikmalarini ekologik va ijtimoiy risklarni aniqlash, baholash va boshqarish sohasida muntazam ravishda o'qitib borish orqali takomillashtirib boriladi.

Xodimlarni ekologik va ijtimoiy masalalar bo'yicha o'qitish Sustainable Finance departamenti tomonidan Bankning Xodimlar va tashkiliy rivojlantirish departamenti bilan birgalikda tashkil etiladi hamda amalga oshiriladi.

### **6-bob. Ekologik va ijtimoiy risklarni monitoring qilish**

29. Ekologik va ijtimoiy risklar monitoringi Bank tomonidan doimiy ravishda O'zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarining talablariga, zarur bo'lgan hollarda xalqaro moliya institutlari talablariga muvofiq ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimida ko'zda tutilgan tartibga asosan amalga oshiriladi.

30. Ekologik va ijtimoiy risklarni monitoring qilish maqsadi-loyihaning to'la ro'yobga chiqarish davrida Bank mijozining faoliyati bilan bog'liq joriy va yangi ekologik risklarni baholash hamda shartnoma shartlarini nazorat qilishdan iborat.

31. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish monitoringi tizimi batafsil tavsifi "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish Tartibi"da belgilangan.

## **7-bob. Ichki hisobot**

32. Ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining ishlashi uchun mas'ul bo'lgan Sustainable Finance departamenti doimiy ravishda, yiliga kamida bir marta, Bank rahbariyati va Kuzatuv kengashiga ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimining ishlashi va barqaror rivojlanishi sohasida belgilangan maqsadlarga erishilganligi to'g'risida hisobot tayyorlaydi. Bank ma'lumot to'plash, tahlil qilish va taqdim etish jarayonini takomillashtirish orqali ekologik va ijtimoiy risklar boshqaruvini amalga oshirish to'g'risidagi hisobotlarning sifatini oshirishga intiladi.

## **8-bob. Ommaviy ochiqlik va jamoatchilikning xabardorligi**

33. Bank barqaror rivojlanish bo'yicha manfaatdor tomonlar, shu jumladan aksiyadorlar, mijozlar, nazorat va tartibga soluvchi organlar hamda jamoatchilik vakillari bilan ochiq muloqotni rivojlantirishga hissa qo'shish majburiyatini oladi.

34. Bank kredit ajratish va investitsiya faoliyatini amalga oshirishda jamoatchilikning hamda ekologik va ijtimoiy ta'sir sohasidagi boshqa manfaatdor tomonlarning qiziqish va fikrlarini hisobga oladi.

YII tomonidan moliyalashtiriladigan loyiha va dasturlar bo'yicha Bank YIIning qayta ko'rib chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosati (Revised Environmental and Social Policy) hamda Axborotni oshkor qilish siyosati (Information Disclosure Policy) talablariga rioya etish majburiyatini oladi.

Bunday loyiha va dasturlar uchun Atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirni baholash hujjatlari (Environmental and Social Impact Assessment – ESIA) hamda tegishli Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejalari (Environmental and Social Management Plans – ESMP) Bank yoki YII tomonidan moliyalashtirish to'g'risida qaror qabul qilinishidan oldin (qaysi biri avvalroq sodir bo'lishidan qat'i nazar) Bankning rasmiy veb-saytida ingliz va o'zbek tillarida e'lon qilinadi:

YIIning B/I-2 toifasidagi loyihalari uchun – kamida 30 kun oldin;

YIIning A/I-1 toifasidagi loyihalari uchun – kamida 120 kun oldin.

Shuningdek, Mahalliy tub aholi xalqlari rejasi (Indigenous Peoples Plan), Gender harakatlar rejasi (Gender Action Plan) hamda boshqa tegishli baholash va boshqaruv hujjatlari Bankning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

YIJ tomonidan moliyalashtiriladigan loyihalar bo'yicha Monitoring va baholash hisobotlari (Monitoring and Evaluation Reports) YIJ Boshqaruv muhokamasiga taqdim etilishi bilan bir vaqtda Bankning rasmiy veb-saytida joylashtiriladi.

Manfaatdor tomonlar uchun aniq va tegishli axborotning mavjudligini ta'minlash maqsadida Bank quyidagi ma'lumotlarni ham oshkor qilishi mumkin:

loyiha faoliyatining maqsadi, xususiyati, ko'lami hamda mo'ljallangan benefitsiarlar; rejalashtirilayotgan faoliyatning davomiyligi;

manfaatdor tomonlar bilan o'tkazilgan maslahatlashuvlarning qisqacha mazmuni va rejalashtirilgan manfaatdor tomonlarni jalb etish jarayoni;

mavjud shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari.

Bank YIJ tomonidan moliyalashtiriladigan loyihada vositachi sifatida ishtirok etgan hollarda, u ijro etuvchi tashkilotlar yuqorida belgilangan majburiyatlarni to'liq bajarishini ta'minlash uchun barcha zarur choralarni ko'radi.

**35.** Axborotlarni oshkor etish sohasida Bank o'zining yillik hisobotida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimi sohasida amaldagi faoliyatini aks ettiruvchi, Bank tomonidan moliyalashtirilayotgan loyihalarning atrof-muhitga ta'siri haqidagi bo'limi, shuningdek loyihalarning ekologik va ijtimoiy risklarini oldini olish va minimallashtirish bo'yicha ko'zda tutilgan choralarni aks ettiradi.

**36.** Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish jarayonlari halollik va xolislik tamoyillari asosida, manipulyatsiya, aralashuv, majburlash, kamsitish yoki qo'rqitish holatlarisiz amalga oshirilishi lozim. Qarz oluvchilar manfaatdor tomonlarning o'z fikr-mulohazalarini bildirish, muammolar va xavotirlarini ko'tarish hamda ularga tegishli javoblar olish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashlari shart.

YIJ tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan loyihalar bo'yicha qarz oluvchilar YIJning qayta ko'rib chiqilgan Ekologik va ijtimoiy siyosati talablariga, shu jumladan axborotni oshkor etish va manfaatdor tomonlarni jalb qilishga oid talablarga rioya etishlari shart.

## **9-bob. Murojaatlarni ko'rib chiqish**

**37.** Murojaatlar va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi, loyihadan kelib chiqadigan manfaatdor tomonlarning murojaatlarini qabul qilish va ko'rib chiqish, shuningdek so'rovlarni o'z vaqtida hal qilish maqsadida, loyihaning risklari va salbiy ta'siriga muvofiq, atrof-muhitni himoya qilish tizimidagi taklif va shikoyatlar (agar ular mavjud bo'lsa) uchun samarali mexanizmdir.

**38.** Murojaatlar va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablariga asoslanadi. Bunda loyiha ta'siriga uchragan shaxslarning murojaatlari tezkor ko'rib chiqiladi va jarayonning ochiq hamda shaffof bo'lishi ta'minlanadi.

**39.** Murojaatlar va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi ekologik va ijtimoiy boshqarish tizimining bir qismidir.

## **10-bob. Yakuniy qoidalar**

40. Ekologik va ijtimoiy risklarni minimallashtirish maqsadida, Bank mavjud moliyaviy va texnologik resurslarni hisobga olgan holda, ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish tizimini doimiy ravishda takomillashtirib boradi va uning natijadorligini oshirib boradi.

41. Bank o'z mablag'lari hisobidan hamda xalqaro moliya tashkilotlari mablag'lari hisobidan loyihalarni moliyalashtirish jarayonida ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish doirasida amaldagi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini hamda boshqa tegishli talablarni qo'llaydi.

42. Mazkur Siyosat talablarini buzganlik uchun qonunchilikka muvofiq choralar qo'llaniladi.

43. Bank xodimlari ushbu Siyosat bo'yicha ish yuritayotganda korrupsiyaviy harakatlarni sodir qilishdan o'zini tiyishi lozim, jumladan:

korruption harakatlarni to'liq taqiqlashi va har qanday moddiy shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita) berishi va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi;

amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan Bankning korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlari talablariga amal qiladi;

jinoiyat yoki huquqbuzarlik alomatlari borligi to'g'risida aniq faktlar yoki dalillar aniqlangan taqdirda, bu haqida o'rnatilgan tartibda huquqni muhofaza qilish organlariga xabar beradi.

44. Bank xodimlari va mijozlari manfaatlar to'qnashuvi bilan bog'liq munosabatlarda O'zbekiston Respublikasining "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi Qonuni hamda Bankning tegishli ichki hujjatlari talablariga qat'iy rioya qilishlari shart.

45. Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari" (ro'yxat raqami 2886, 2017 yil 23 may) hamda "O'zsanoatqurilishbank" ATBning xalqaro iqtisodiy sanksiyalarga rioya etish siyosati (ro'yxat raqami 576, 2023 yil 6 dekabr) talablariga qat'iy amal qilish majburiydir.

46. Ushbu Siyosat tasdiqlanishi munosabati bilan Bank kuzatuv kengashining 2023-yil 22-noyabrdagi 2023/34-sonli qarori bilan tasdiqlangan "O'zsanoatqurilishbank" ATBning ekologik va ijtimoiy risklarni boshqarish siyosati" (ichki ro'yxat raqami 579, 15.12.2023 yil) o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

**Global bozorlar va  
moliyalashtirish bosh  
direktori:**



**D.Sadirov**

**№ 13**

**2026 yil «7» «iyul»**

kelishuvchilar: Sh.Ismoilov, A.Xujamuratov, J.Ismatov, A.Islamov, S.Sanjarov, B.Artikov, O.Toshev, Z.Eshmurodova, D.Mamadaliyev, A.Abdumajidov, Y.Sultonov, A.Yoqubjonov, A.Tolibov, B.Sultonmurodov, D.Shamirzayev, F.Xasanov

<https://hujjat.sqb.uz/?pin=dF24gE41&id=d1244d8b-1588-4248-936c-cb2be2ef6e9c>